

TIJORAT BANKLARIDA DEBITORLIK QARZLARINI HISOBGA OLISH VA AUDITINI TASHKIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Qayumov Qudratjon Kimsanboyevich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda tijorat banklarida debitorlik qarzdorlik hisobi va auditini takomillashtirish jarayoniga chuqurroq yondashiladi. Dastlab, debitorlik qarzdorlikning bank aktivlari tarkibidagi o'rnini va uning tijorat banklarining umumiy moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'siri yoritiladi. Shu jumladan, ushbu qarzdorliklar bankning nafaqat ichki, balki tashqi moliyaviy muvozanatini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi. Maqolada tijorat banklarida debitorlik qarzdorlikni hisobga olishda uchraydigan asosiy muammolar, jumladan, qarzdorlikning aniq va to'liq hisobga olinmasligi, to'lov qobiliyati past bo'lgan qarzdorlar bilan ishlashdagi qiyinchiliklar va kredit risklarini samarali boshqarishda kamchiliklar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va hisob jarayonlarini avtomatlashtirish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, debitorlik qarzdorlik, buxgalteriya hisobi, audit, moliyaviy barqarorlik, likvidlik, kredit risklari, avtomatlashtirilgan tizimlar, xalqaro audit standartlari, moliyaviy nazorat.

Kirish

Tijorat banklari moliyaviy tizimning ajralmas qismi bo'lib, ular turli moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlaydi. Banklar o'z mijozlariga kreditlar berish, depozitlarni qabul qilish, hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa xizmatlar orqali daromad olishadi. Ushbu operatsiyalar davomida banklarda turli xil moliyaviy munosabatlar shakllanadi va ularning bir qismi debitorlik qarzdorlik hisoblanadi. Debitorlik qarzdorlik bank aktivlarining muhim qismi bo'lib, uning to'g'ri boshqarilishi va hisobga olinishi bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Mijozlarning o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirmasligi bankning likvidlik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, debitorlik qarzdorlikni to'g'ri hisobga olish va auditini tashkil qilish bank faoliyatining muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi

Banklar faoliyatida debitorlik qarzdorlikni boshqarish muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Shuningdek, audit jarayonida mavjud muammolarni aniqlash va xalqaro tajribaga asoslangan takliflarni ishlab chiqish ham tadqiqotning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqotning dastlabki bosqichida tijorat banklarida debitorlik qarzdorlik

hisobi va auditi bo'yicha mavjud nazariy adabiyotlar o'rganildi. Ushbu adabiyotlar orqali debitorlik qarzдорlikning bank faoliyatidagi o'rni, u bilan bog'liq muammolar va xalqaro tajriba tahlil qilindi. Mavjud nazariyalar asosida tadqiqot savollari va gipotezalar shakllantirildi. Tadqiqot davomida tijorat banklarining moliyaviy boshqaruvchilari va auditorlar bilan suhbatlar o'tkazildi. Ushbu suhbatlar orqali debitorlik qarzдорlikni hisobga olishda va audit jarayonida duch kelinadigan amaliy muammolar va tavsiyalar olindi. Bu usul tadqiqotda qo'llanilgan amaliy ma'lumotlarni to'plash uchun muhim bo'ldi. Tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish va debitorlik qarzдорlikni hisobga olish jarayonini kuzatish tadqiqotning amaliy qismiga asos bo'ldi. Ushbu kuzatuv orqali qarzдорlikning bankdagi umumiy ko'rsatkichlarga ta'siri va ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar o'rganildi. Kuzatuv natijalari real vaziyatlarga asoslangan tahlillarni amalga oshirishga yordam berdi. Tadqiqotda tijorat banklarida debitorlik qarzдорlikning dinamikasini tahlil qilish uchun vaqt ketma-ketligi tahlili qo'llanildi. Ushbu usul yordamida qarzдорliklarning o'zgarish tendensiyalari va ularning bank faoliyatiga ta'siri o'rganildi. Bankning o'tgan yillardagi qarzдорlik ko'rsatkichlari, buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotlari tadqiqotning asosiy ma'lumotlar manbasi bo'ldi. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba va O'zbekiston tijorat banklari amaliyoti o'rtasida taqqoslash usuli qo'llanildi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bevosita korxona bilan qarshi tamon o'rtasidagi o'zaro hisob kitoblarda kelib chiqadigan majburiyatlardir. Bu majburiyatlar korxona bilan mol yetkazib beruvchilar yoki xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarda, korxona bilan bank tashkilotlar o'rtasida, korxona bilan soliq organlari o'rtasidagi, korxona bilan ijtimoiy taminot bo'limlari va turli jamoat tashkilotlari, shuningdek, xodimlar, mulk egalari, aksionerlar va investorlar bilan bo'ladigan munosabatlarda yuzaga keladi. Ularning yuzaga kelishining asosiy sababi hisob kitoblarda vaqtning o'zgaruvchanligidir. Ya'ni bugun orilgan mahsulot ham puli to'langunga qadar debitorlik va kreditorlik majburiyatlar qatoriga kiritiladi. Bunda daromad va xarajatlarning yuzaga chiqishi bilan ular bo'yicha hisob kitoblarning amalga oshishi orasida farqlanish kelib chiqadi.

Xulosa va Taklif

Debitorlik qarzдорlik bank aktivlarining muhim qismi bo'lib, uning to'g'ri boshqarilishi va hisobga olinishi bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Mijozlarning o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirmasligi bankning likvidlik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, debitorlik qarzдорlikni to'g'ri hisobga olish va auditini tashkil qilish bank faoliyatining muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklarida debitorlik qarzдорlik hisobini takomillashtirish mavzusi ko'plab iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Ular asosan bank aktivlarining to'g'ri boshqarilishi, debitorlik qarzдорlikning tahlili va audit jarayonini

takomillashtirish yo‘llariga qaratilgan ilmiy ishlarda katta hissa qo‘shganlar. Quyida ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib borgan yetakchi olimlar va ularning ishlari keltiriladi. Basel qo‘mitasi – Banklarda kredit risklarini boshqarish, qarzдорlikni baholash va nazorat qilish borasida asosiy xalqaro standartlar ishlab chiqqan. Ular tomonidan taklif qilingan Basel III qoidalari banklar tomonidan debitorlik qarzдорlikni to‘g‘ri boshqarish va hisobotini ta‘minlashga katta e‘tibor beradi.

Tijorat banklarida debitorlik qarzдорlik hisobi va auditini takomillashtirish mavzusi ko‘plab iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan. Ular asosan bank aktivlarining to‘g‘ri boshqarilishi, debitorlik qarzдорlikning tahlili va audit jarayonini takomillashtirish yo‘llariga qaratilgan ilmiy ishlarda katta hissa qo‘shganlar. Quyida ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib borgan yetakchi olimlar va ularning ishlari keltiriladi. Basel qo‘mitasi – Banklarda kredit risklarini boshqarish, qarzдорlikni baholash va nazorat qilish borasida asosiy xalqaro standartlar ishlab chiqqan. Ular tomonidan taklif qilingan Basel III qoidalari banklar tomonidan debitorlik qarzдорlikni to‘g‘ri boshqarish va hisobotini ta‘minlashga katta e‘tibor beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.2020 yil 12 maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli “2020-2025 yillarga muljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.
- 2.Omonov, A. A., Koraliev, T. M. Dengi i banki. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. — 412 p.
- 3.Azizov, U., Karaliev, T., Bobokulov, T. Bankovskoe delo: Uchebnoe posobie. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. — 356 p.
- 4.Tashxodjaev, M. Korporativ boshqaruvni takomillashtirish. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2014. — 298 p.
- 5.Jumayev, N. H. Bank ishi va moliya bozorlari. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. — 384 p.
- 6.Abduraxmonov, Q. X. Iqtisodiyot nazariyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 520 p.
- 7.King, B. (2018). Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank. London: Marshall Cavendish International.
- 8.Krishnan, S. (2014). The Power of Mobile Banking: How to Profit from the Revolution in Retail Financial Services. Hoboken: John Wiley & Sons.
- 9.Tapscott, D., & Tapscott, A. (2018). Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin and Other Cryptocurrencies Is Changing the World (Updated ed.). New York: Portfolio.
- 10.KPMG. (2022). Fintech and Digital Cost Transformation Report. Available at: <https://home.kpmg>